

MAHALLIYLASHTIRISH VA KORPORATSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Murodov Nuriddin Nemat o'g'li

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20018979>

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliyashtirish va korporatsion jarayonlarni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Unda mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda qonunchilik hujjatlarining o'rni yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda 2016-yildan keyingi davrda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mahalliy ishlab chiqarish, investitsiya loyihalari va korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning muhim institutsional omili sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mahalliyashtirish, korporatsion jarayonlar, me'yoriy-huquqiy asoslar, sanoat kooperatsiyasi, erkin iqtisodiy zonalar, korporativ boshqaruv, investitsiya, iqtisodiy samaradorlik.

Mahalliyashtirish va korporatsion jarayonlarni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari deganda ushbu jarayonlarni tashkil etish, tartibga solish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishga xizmat qiluvchi qonunlar, qonunosti hujjatlar, davlat dasturlari, nizomlar, standartlar hamda institutsional qoidalar tizimi tushuniladi. Mazkur asoslar iqtisodiy munosabatlarning huquqiy chegaralarini belgilab berish bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning vakolatlari, majburiyatlari hamda o'zaro mas'uliyatini aniqlashtiradi. Shu jihatdan me'yoriy-huquqiy asoslar mahalliyashtirish va korporatsion boshqaruvni aniq huquqiy tartibga solinadigan va iqtisodiy natijadorlikka yo'naltirilgan tizim sifatida namoyon etadi.

Me'yoriy-huquqiy asoslar bozor subyektlari faoliyati uchun barqaror institutsional muhit yaratadi. Mahalliyashtirish jarayonida qaysi mahsulotlar, qaysi butlovchi qismlar yoki qaysi texnologik bo'g'inlar ichki ishlab chiqarish doirasiga kiritilishi, loyihalarning mezonlari qanday belgilanishi, imtiyoz va rag'batlarning qay tartibda qo'llanilishi, kooperatsiya aloqalari qanday yo'lga qo'yilishi aynan huquqiy asoslar orqali tartibga solinadi. Korporatsion jarayonlarda esa aksiyadorlar, kuzatuv kengashi, ijro organi va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlar, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tartibi, ochiqlik, hisobdorlik va javobgarlik mezonlari me'yoriy-huquqiy normalar vositasida mustahkamlanadi. Natijada boshqaruv jarayonida aniqlik, izchillik va iqtisodiy intizom ta'minlanadi.

Alohida ta'kidlash lozimki, mahalliyashtirish dasturlarining samaradorligi, kooperatsiya aloqalarining barqarorligi, investitsiya resurslarining maqsadli yo'naltirilishi va korporativ boshqaruv natijadorligi ko'p jihatdan me'yoriy-huquqiy bazaning puxtaligiga bog'liq bo'ladi. Agar huquqiy asoslar yetarlicha aniq va uyg'un shakllanmagan bo'lsa, boshqaruv qarorlarida tafovutlar, subyektiv yondashuvlar, resurslar taqsimotida nomutanosiblik va manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin. Shu bois me'yoriy-huquqiy asoslar iqtisodiy jarayonlarni tartibli, shaffof va samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi institutsional vosita sifatida baholanishi lozim.

Mahalliyashtirish va korporatsion jarayonlarni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari tushunchasini kengroq talqin qilganda, unda uchta muhim tarkibiy qatlam ko'zga tashlanadi. Ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Birinchi qatlam umumiy huquqiy asos bo'lib, u tadbirkorlik faoliyati, investitsiyalar, mulkchilik munosabatlari, korporativ boshqaruv va sanoat siyosatiga oid umumiy qonunchilikni qamrab oladi;

Ikkinchi qatlam maxsus tartibga solish mexanizmlaridan iborat bo'lib, u mahalliyashtirish dasturlari, sanoat kooperatsiyasi, iqtisodiy zonalar faoliyati, loyiha tanlash mezonlari va rag'batlantirish choralari bilan bog'liq me'yorlarni o'z ichiga oladi;

Uchinchi qatlam esa institutsional-amaliy asos bo'lib, bunda vakolatli davlat organlari, muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar, monitoring tizimi, hisobot mexanizmlari va ijro intizomi masalalari namoyon bo'ladi.

Ana shu uch qatlam birgalikda ushbu sohaning yaxlit huquqiy-institutsional poydevorini shakllantiradi. Demak, mahalliyashtirish va korporatsion jarayonlarni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari tushunchasi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui sifatida, boshqaruvning institutsional barqarorligini ta'minlovchi vosita sifatida hamda sanoat rivojini rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Aynan shu asoslar yordamida mahalliyashtirish siyosatining maqsadlari aniq belgilanadi, korporativ boshqaruvning samarali modeli shakllantiriladi va iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarish hamda kooperatsiya aloqalarining barqaror rivojlanishi uchun zarur tashkiliy-huquqiy muhit yaratiladi.

Qayd etish joizki, O'zbekistonda mahalliyashtirish jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi keyingi yillarda sanoat siyosatining alohida yo'nalishi sifatida shakllandi. Mazkur tizimning asosiy vazifasi mahalliy xom ashyo va butlovchi qismlardan foydalanishni kengaytirish, ichki kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va hududiy sanoat salohiyatini ishga solishdan iborat. Shu ma'noda mahalliyashtirishni tartibga soluvchi hujjatlar davlatning tarkibiy-sanoat siyosatini amalga oshirish vositasiga aylanadi. Bu tizimda Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, sohaviy nizomlar hamda korporativ boshqaruvga oid qonunchilik normalari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda amal qiladi.

Mazkur huquqiy tizimning yangi bosqichi 2018-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5600-son Farmoni bilan yanada aniq ko'rinish oldi. Ushbu farmonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirish, davlat organlari funksiyalaridagi takrorlanishni kamaytirish, investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish masalalari ilgari surilgan [1]. Hujjat mazmunidan iqtisodiy zonalarini samarali boshqarish mahalliyashtirish jarayonlari bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rish mumkin. Chunki aynan shu hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, kooperatsiya zanjirlari va ichki sanoat aloqalari shakllanadi. Demak, ushbu Farmon mahalliyashtirish uchun umumiy institutsional maydon yaratib, uni hududiy sanoat siyosati bilan bog'lab berdi deyishimiz mumkin.

Mahalliyashtirishni bevosita va aniq yo'naltirgan muhim hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi “Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda

mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida"gi PQ-4426-son qaroridir. Mazkur qarorda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirish bo'yicha mas'uliyatini oshirish masalasi markazga qo'yilgan [2]. Hujjatda mahalliy xom ashyo, ilmiy ishlanmalar va zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu qarorning iqtisodiy mazmuni shundaki, unda mahalliyashtirish importni sanoat kooperatsiyasi, innovatsiya, ichki resurslardan foydalanish va eksportni rag'batlantirish bilan bog'liq kompleks jarayon sifatida talqin qilingan.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozim, yuqoridagi qarorning amaliy ijro mexanizmlari 2019-yil 17-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish, amalga oshirish va hisobot tizimini yuritish hamda ushbu jarayonda davlat boshqaruvi organlari va loyihalar tashabbuskorlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 1009-son qarori bilan aniq belgilab berildi. Ushbu qarorda mahalliyashtirish loyihalarini shakllantirish, ko'rib chiqish, dasturga kiritish, monitoring qilish hamda ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tartibi ko'rsatildi [3]. Xususan, doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruhlar, monitoring tartibi, vazirlik va idoralarga takliflar kiritish mexanizmi hamda loyihalarni amalga oshirish yuzasidan muvofiqlashtirish normalari belgilangan. Bu hujjat mahalliyashtirishni siyosiy niyat darajasidan amaliy boshqaruv mexanizmi darajasiga olib chiqdi. Natijada loyihalarni tanlash, ularga tuzatish kiritish, ijrosini kuzatish va natijadorligini baholash uchun institutsional asos shakllandi.

Mahalliyashtirish jarayonlarining huquqiy bazasi korporativ boshqaruv bilan ham uzviy bog'liq. Chunki yirik sanoat korxonalari, ayniqsa aksiyadorlik jamiyatlari shaklida faoliyat yuritayotgan subyektlar mahalliyashtirish loyihalarining asosiy tashabbuskorlari va ijrochilari hisoblanadi. Shu jihatdan 2022-yil 29-martdagi O'zbekiston Respublikasining "Korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-760-son Qonuni alohida ahamiyatga ega bo'lib, u "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritdi [4]. Ushbu yangilanishlar boshqaruv organlari vakolatlari, javobgarlik, kuzatuv va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqroq tartibga soldi. Shu sababli mazkur hujjat mahalliyashtirish loyihalarini moliyalashtirish, strategik qarorlar qabul qilish va investitsiya resurslarini yo'naltirish uchun zarur bo'lgan korporativ-huquqiy tayanchni mustahkamladi.

2016-yildan keyingi davrda ushbu huquqiy tizimning yana bir muhim xususiyati — boshqaruvni markazlashtirish bilan bir qatorda hududiy va tarmoqlararo muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5600-son Farmonii hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab

chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida"gi PQ-4426-son qarori birgalikda qaralganda, ular erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar, sanoat tarmoqlari va mahalliy ijroiya hokimiyati o'rtasidagi bog'liqlikni qayta tashkil etganini ko'rish mumkin. Bu holat mahalliyashtirishni hududiy rivojlanish, investitsiya siyosati va sanoat kooperatsiyasining umumiy institutsional tizimi sifatida ko'rishga olib keldi. Shu ma'noda me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi boshqaruv subyektlari vakolatini aniqlash, ularning mas'uliyatini kuchaytirish va ichki ishlab chiqarish zanjirlarini barqaror shakllantirish uchun xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mahalliyashtirish jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi 2016-yildan keyingi davrda izchil takomillashib, yaxlit va amaliy xarakter kasb etdi. Ushbu tizimda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soluvchi normalar, mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini jadallashtirishga qaratilgan Prezident qarorlari, loyiha monitoringi va muvofiqlashtirish mexanizmlarini belgilovchi Hukumat qarorlari hamda korporativ boshqaruvni takomillashtiruvchi qonunchilik o'zaro uyg'unlashgan holda amal qilmoqda. Natijada mahalliyashtirish siyosati uchun huquqiy, tashkiliy va institutsional tayanch shakllandi. Aynan shu tayanch keyingi bosqichda korporatsion jarayonlarni boshqarishning maxsus huquqiy asoslarini alohida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonda korporatsion jarayonlarni boshqarishning huquqiy asoslari aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati, davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish, kuzatuv va nazorat mexanizmlari, boshqaruv organlari vakolatlari, shaffoflik va hisobdorlik talablarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi asosida shakllangan. Mazkur huquqiy baza korporativ boshqaruvni investitsiya muhiti, kapital bozori, ishlab chiqarish samaradorligi va sanoatni modernizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq institutsional mexanizm sifatida namoyon etadi. Shu jihatdan korporatsion jarayonlarni boshqarishning huquqiy asoslari mahalliyashtirish siyosati bilan ham uzviy aloqada bo'lib, yirik korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarida uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilish, resurslarni oqilona yo'naltirish va ichki kooperatsiya zanjirlarini barqaror rivojlantirish uchun me'yoriy tayanch vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliyashtirish va korporatsion jarayonlarni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari iqtisodiy jarayonlarning izchil, shaffof va samarali tashkil etilishida muhim institutsional poydevor vazifasini bajaradi. O'zbekistonda 2016-yildan keyingi davrda qabul qilingan Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari hamda korporativ boshqaruvga oid qonunchilik normalari mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur huquqiy tizim mahalliy xom ashyo va ichki ishlab chiqarish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, investitsiya loyihalarini maqsadli yo'naltirish, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi mas'uliyat va vakolatlarni aniqlashtirish orqali iqtisodiy zonalarda barqaror ishlab chiqarish muhitini shakllantiradi. Shu bois mahalliyashtirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishda me'yoriy-huquqiy bazani yanada uyg'unlashtirish, monitoring mexanizmlarini kuchaytirish va korxonalar darajasida ijro intizomini mustahkamlash kelgusidagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5600-son Farmoni. 21.12.2018. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-4117767>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida”gi PQ-4426-son qarori. 24.08.2019. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-4486600>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish, amalga oshirish va hisobot tizimini yuritish hamda ushbu jarayonda davlat boshqaruvi organlari va loyihalar tashabbuskorlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1009-son qarori. 17.12.2019. Manba: <https://lex.uz/docs/-4648958>
4. O'zbekiston Respublikasining “Korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-760-son Qonuni. 29.03.2022. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5930126>